



ISLOMDA AXLOQIY QADRIYATLAR

Alimardon Karomatov Azamat o'g'li

Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, "Fazli" jome masjidi imom xatibi

"Xoja Buxoriy" islom ta'lim muassasasi Matbuot kotibi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom dinida axloqiy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati Qur'oni karim va hadislar asosida tahlil qilinadi. Unda axloqtushunchasining mohiyati, uning inson kamoloti va jamiyat barqarorligidagi roli yoritib berilgan. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning go'zal xulqlari Islom axloqining amaliy namunasi sifatida asos ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, axloqning tabiiy va kasb etiladigan jihatlari, tarbiya, muhit va iymonning axloqiy kamolotga ta'siri ilmiy-diniy manbalar orqali ochib beriladi. Maqolada zamonaviy davrda axloqiy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borayotgani va Islom axloqiy tamoyillari insoniyat uchun umumbashariy ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Islomda axloqiy qadriyatlar nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyatda tinchlik, totuvlik va taraqqiyotning muhim omilidir.

Kalit so'zlar: Islom axloqi, axloqiy qadriyatlar, xulq, Qur'on va sunnat, husni xulq.

Insoniyat jamiyati qadim zamonlardan buyon axloqiy qadriyatlar asosida taraqqiy etib kelmoqda. Axloqiy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy asosi, shaxsning kamoloti va ijtimoiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, Islom dini o'zining paydo bo'lgan ilk davrlaridanoq insonning ichki pokligi, halolligi, adolatliligi, sabr-toqati, rahm-shafqatli bo'lishi kabi fazilatlarni alohida qadrlagan va ularga jiddiy ahamiyat bergan. Islomda axloq, nafaqat shaxsiy sifatlar jamlanmasi, balki Allohga yaqinlashish, jamiyatda totuvlikni mustahkamlash va umumbashariy qadriyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Islomiy axloqiy qadriyatlarning asosiy manbalari Qur'oni karim va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadisi shariflaridir. Qur'on axloqiy fazilatlarni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Unda halollik, adolat, vafodorlik, rostgo'ylik, sabr-toqat kabi xislatlar ko'plab oyatlar orqali ta'kidlangan. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotlari esa bu oyatlarning amaliy ko'rinishidir. U zotning axloqlari haqida Oisha onamiz roziyallohu anho: "Payg'ambarimizning axloqlari Qur'on edi", deganlar.

Bugungi globallashtirish, ma'naviy inqiroz va g'arbona madaniyatning kuchli ta'siri ostida axloqiy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kuchayib borayotgan bir paytda,



Islom axloqiy tamoyillarini o'rganish va targ'ib etish yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki bu qadriyatlar nafaqat musulmon jamiyatlar, balki butun insoniyat uchun foydali va abadiy ma'naviy mezonlardir. Islom dini inson hayotining har bir jabhasini qamrab olgan mukammal hayot tarzini taklif etadi. Bu hayot tarzi nafaqat ibodatlar va dini marosimlarni, balki axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Axloqiy qadriyatlar Islomda muhim o'rin tutadichunki ular jamiyatning sog'lom rivojlanishi va insonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Alloh taolo Qur'oni Karimda shunday marhamat qiladi:

$\cap \subseteq \cup \quad 5 \quad 0 \quad \notin \diamond \tau \odot \cong, \setminus = {}^{\text{TM}} \zeta \quad 4 \quad \vee ? \psi \setminus \sigma \psi \downarrow P \in \cup \rho$

“Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!”

Bu oyati karima Payg'ambar alayhissalom uchun katta bahodir. Avvalo o'tgan

oyatda Alloh taolo u zotga «Robbing» deb O'z ismi sharifiga qo'shib xitob qilgan edi.

Endi esa u zotning xulqlarini ulug'lik bilan sifatlamoda2 .

Bu oyatning mazmuniga qaralsa, Qur'onga iymon keltirgan har bir odam

Payg'ambarimizning daraja va martabalari Alloh oldida qanday ulug' ekaniga yaxshi

1 Muslim ibn Hajjaj. *Sahih Muslim*. – Qohira: Dar al-Hadith, 2001. – J. I. – B. 512.

2 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Tafsiri Hilol*. – Toshkent: Hilol nashriyoti, 2016. – J. I. – 225-226 B.tushunadi. Allohning bandalariga bergan ne'matlari ichida eng ulug'i aqlidir. Bu ulug'

ne'matni Alloh yaratganicha Rasululloh (s.a.v)ga berib, shu aql ne'mati orqali butun fazli kamolga ega bo'lib, ikki dunyo davlatiga ummatlarini erishtirishga yo'l ko'rsatdilar. Xoh diniy, xoh dunyoviy har bir ishda kishilarning o'zlariga qarab, aqliga yarasha muomala qilar edilar. Alloh taolo xalqni ichki va tashqi sifatlarini qoldirmay Rasululloh (s.a.v)ga bildirgan edi. Shunga ko'ra ularga tarbiya berar edilar, chunki bandalarning Alloh dargohiga loyiq bo'lishlari uchun shaytoniy sifatlardan ularni pok qilib, hayvoniy sifatlarini isloh qilish lozimdir.

Oisha onamizdan u zotning xulqlari haqida so'rashganda «Xulqlari Qur'on edi», deb javob berganlar. Ya'ni Muhammad alayhissalom Qur'ondagi oliy xulqlar bilan xulqlanganlar. Ul zot sollallohu alayhi vasallam Qur'ondagi barcha yaxshi odob-axloqni o'zlariga singdirganlar.

Payg'ambarimiz alayhissalomning o'zlari **«Men yaxshi xulqlarni batamom qilish uchun yuborilganman3»**, deganlar. Boshqa bir hadislarida esa: **«Kishi yaxshi xulqi bilan kunduzni ro'za tutib, kechasini namoz o'qib**



o'tkazadiganlar darajasiga yetadi⁴», deganlar. Kunduzlarni ro'za tutib, kechalarni tik turib namoz o'qigan holida bedor o'tkazadigan odam qanchalar oliy darajalarga erishishini hammamiz yaxshi bilamiz. Farz-u vojib amallardan keyin qilinadigan eng yaxshi amallar ana shundoq bo'ladi.

Xuddi shuningdek, o'ziga farz-u vojib bo'lgan amallarni bajarib turib, yana nafl amallar bilan ortiqcha savob topaman degan odam husni xulq bilan ham yuqori darajalarga erishmog'i mumkin ekan.

Umuman, axloqiy qadriyatlar bunga o'xshash ulkan savoblar bilan birga, ko'pgina yaxshiliklarga ham erishtirishi turgan gap. Axloqli odamni hamma yaxshi ko'radi va hurmat qiladi. Undan hamma mamnun bo'ladi. Axloqli kishi o'zi yashab turgan jamiyatning ko'rki bo'ladi.

3 Imom Malik. *Al-Muvatto*. – Qohira: Dar Ihyo at-Turath al-'Arabi, 2004. – Kitob al-Husn al-Khuluq, Hadis №8.

4 Abu Dovud. *Sunan*. – Kitab al-Adab, hadis: 4798; Imom Ahmad ibn Hanbal. *Musnad*, hadis: 23391 Axloq «xulq» so'zining ko'pligi bo'lib, insonda shakllanadigan xulq-atvorni bildiradi⁵.

Ba'zi ulamolar axloqni «irodaning odati» deb ta'rif qilganlar. Ya'ni, iroda o'ziga bir narsani odat qilib olsa, o'sha axloqqa aylangan bo'ladi. Misol uchun, kishining irodasi xayr-ehson qilishga azmu qarorli bo'lib qolsa, o'sha «karamli xulq» deyiladi.

Islom diynida axloqiy tarbiya diyniy tarbiyaning ajralmas qismi, desak, mubolag'a qilmaymiz. Zero, din yaxshi deb xisoblagan va da'vat etgan narsalar ezgulik, yomon deb xisoblagan va man etgan narsalar yovuzlikdir. Shuningdek, diyn buyurgan, hayotda va muomalada kasb etishga targ'ib etgan axloq va faziylatlar Islom jamiyatida qadriyat, chiroyli xulq va ma'naviy faziylatlar hisoblanadi.

Qadimdan axloq ilmi ulamolari «Odamdagi axloqlar uning yaratilishida qo'shib yaratilgan bo'ladimi yoki kishi axloqni keyin o'rganadimi?» degan savolga javob berishda ixtilof qilishgan.

Ulardan ba'zilari: «Yaxshi va yomon axloq inson yaratilgan chog'ida qo'shib yaratiladi, axloqni keyin kasb qilib bo'lmaydi», deganlar.

Boshqa bir guruh ulamolar: «Inson tug'ilganda hech qanday faziylat yoki raziylatsiz tug'iladi, unda qanday xislat bo'lsa, tug'ilganidan keyin paydo bo'ladi», deganlar.

Axloq ilmi ulamolari esa: «Ota-onasida mavjud bo'lgan ba'zi axloqlar xamirturushi insonga onasining qornidalik paytidayoq o'tadi. Alloh bandani xalq qilish chog'ida axloq qobiliyatini ham qo'shib yaratadi. Inson o'sishi jarayonida tarbiya, muxit va odatlanish oqibatida u yoki bu axloqni o'zida rivojlantiradi yoki yo'qotib yuboradi», deydilar. Shuning uchun ham, Islomda



xulqli sayqallashga alohida e'tibor beriladi. Bu ish har bir musulmon uchun lozim va lobud ishlardan biri darajasiga ko'tariladi.

5 Ibn Manzur. *Lisān al-'Arab*. – Qohira: Dor al-Ma'rifa, 1990. – J. 10. – B. 96. Islom dini inson hayotining barcha jabhalarini o'z ichiga oluvchi mukammal yo'l-yo'riqdir. Unda axloqiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Islom axloqni iymon bilan bog'laydi, ya'ni chinakam musulmon faqat ibodat bilan emas, balki go'zal xulqi bilan ham mukammallikka erishadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) axloqning eng oliy namunasi bo'lib, u zotning hayoti orqali insoniyat ezgulik, sabr, kechirim, halollik, sadoqat va kamtarlik kabi sifatlarni qanday amalga oshirish mumkinligini o'rganadi.

Islom axloqni tabiiy va o'rgatiladigan sifat sifatida talqin qiladi. Inson ba'zi xulqiy moyilliklar bilan tug'ilgan-da, ularni tarbiya, muhit va shaxsiy sa'y-harakatlar orqali shakllantirishi yoki o'zgartirishi mumkin. Bu esa axloqiy kamolot har bir kishining o'z qo'lida ekanligini bildiradi. Musulmon kishining axloqiy darajasi faqat shaxsiy najot emas, balki jamiyatdagi totuvlik, adolat va taraqqiyotning ham omilidir.

Axloqli jamiyat — bu Qur'on va Sunnatga amal qiluvchi, boshqalarga yaxshilik qiluvchi, mo'minlarga mehribon bo'lgan jamiyatdir. Zamonaviy dunyoda moddiy taraqqiyotga intilish kuchayib borayotgan bir paytda, axloqiy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Islom esa bu ehtiyojga eng to'g'ri va mukammal javobni beradi. Shu bois har bir musulmon o'z xulqini Qur'on va sunnat mezonlari asosida baholab, unga mos ravishda yashashi lozim. Zero, eng go'zal musulmon — eng go'zal axloq egasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni Karim (ma'nolar tarjimasi va tafsirlari).
2. Imom Buxoriy. **Al-jome' as-sahih**. – Hadislar to'plami.
3. Imom Muslim. **As-sahih**. – Hadislar to'plami.
4. G'azzoliy, Abu Homid. **Ihyo ulumid-din**. – Axloq va tarbiya masalalari.
5. Ibn Qayyim al-Javziyya. **Madārij as-sālikīn**.
6. Yusuf Qardoviy. **Islomda axloq**. – Qohira.
7. Said Nursiy. **Risolai Nur** to'plami (axloq va iymon mavzulari).